

LEKSIK-SEMANTIK MAYDONLARDA KONSEPTLARNING VERBAL NAMOYON BO'LISHI

Rejapova Moxlaroy Farxodbek qizi

Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

Email: mokhlaroymamadaliyeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada konseptlarning til vositalari orqali ifodalanish jarayoni — verbalizatsiya masalasi tahlil qilinadi. Verbalizatsiyalangan va verbalizatsiyalanmagan konseptlar farqlari, ularning tilda qanday leksik-semantik birliklar orqali namoyon bo'lishi hamda bu jarayondagi lingvistik va madaniy muammolar yoritiladi. Shuningdek, konseptual va leksik maydonlar nazariyasi asosida konseptlarning verbal reprezentatsiyasiga oid yondashuvlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: konsept, verbalizatsiya, verbalizatsiyalanmagan konsept, leksik-semantik maydon, konseptual maydon, til va tafakkur, lingvistik ifoda vositalari

Til orqali inson tafakkurida mavjud bo'lgan konseptlar ifodalanadi. Biroq barcha konseptlar ham tilda ochiq shaklda namoyon bo'lavermaydi. Ba'zilar so'zlar, iboralar yoki grammatik vositalar orqali ifodalanib, verbalizatsiyalangan konseptlarni tashkil etsa, boshqalari esa tilda bevosita ifodalanmaydi va verbalizatsiyalanmagan konseptlar sifatida qoladi.

Bu hususda tilshunos F.R.Halimova konseptlarni tilda aks etish imkoniyati nuqtai nazaridan ikki turga ajratilishini ta'kidlaydi: verbalizatsiyalangan va verbalizatsiyalanmagan konseptlar. Aytib o'tganimizdek, birinchi tur konseptlar tilda so'zlar, frazeologik birliklar, gaplar va grammatik kategoriyalar kabi vositalar orqali ifodalanib, til birliklarida aniq va izchil tarzda namoyon bo'ladi. Ushbu jihatdan, til tizimi ichidagi barcha darajalar inson tafakkurida mavjud bo'lgan ma'nolarni ifodalashda faol ishtirok etadi. Verbalizatsiyalanmagan konseptlar esa tilda o'z ifodasiga ega bo'lmasa-da, til egalarining ongida mavjudligini saqlab qoladi. Ularni lingvistik teshiklar yoki "linguistic lacunae" deb ataladi [1, 55-58]. Bu tushuncha orqali, tilda mavjud bo'lmagan, lekin muayyan madaniyat yoki tafakkurda mavjud bo'lgan konseptlar nazarda tutiladi. Bunday konseptlar tilda to'g'ridan-to'g'ri ifodalanmasa ham, ularni bilvosita tushuntirish, ta'riflash yoki kontekst orqali yetkazish mumkin.

Tadqiqotlarga tayanib shuni ayta olamizki, muayyan konsept verbalizatsiyasi konseptual tahlillarda o'ziga xos darajadagi chalkashliklar va muammolarga duch kelinishi mumkinligini inkor etmaydi-ki, ular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin: ba'zi leksemalar polisemik xarakterga ega bo'lib, konsept ifodasida chalkashliklar yoki g'alizliklarga olib kelishi mumkin; konseptlar kontekstga qarab o'zgarishini hisobga oladigan bo'lsak, ma'lum kontekstda ifodilangan konsept boshqa kontekstga ko'chganida o'zga tovlanish bilan aks etishi mumkin; ba'zi tillarda bir konseptni ifodalash uchun bir nechta leksik birliklar yoki murakkab iboralar mavjud bo'lsa, boshqa tillarda esa ularning sirasi kamroq bo'lishi va hatto yagona reprezent bilan ifodalanishi mumkin; har bir insonning konseptni tushunishi va verbalizatsiya qilishi individual tajriba va dunyoqarashga, shuningdek lingvistik

kompetensiyadan tashqari yosh, jins, millat, madaniyat, ijtimoiy status singari ekstralingvistik omillarga ham bog'liq bo'lgani uchun ham subyektiv tabiatga ega ekanligi hisobiga muayyan mujmalliklar yuzaga chiqishi ehtimoli ham yuqori. Masalan, inglizlar kabi ko'plab yevropalik insonlar uchun ba'zi hayvonlarning go'shti "yoqimli taom" konseptining bir qismi bo'la olishi mumkin bo'lgan bir vaqtda, musulmon o'lkalarning aholisi uchun u yegulik "taomlar" kategoriyasiga ham kirmasligi mumkinligi haqiqatdir.

Yuqorida sanab o'tilgan masalalarning yechimini topishda tilshunoslik, tarjima nazariyasi, madaniyatshunoslik va kognitiv psixologiya kabi fanlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi, chunki, konseptlarni to'g'ri verbalizatsiya qilish ilmiy-ijodiy izlanish va chuqur tahlilni talab qiladigan faoliyat hisoblanadi.

O.I.Kiryakova qiyosiy tilshunoslikda konseptning verbal reprezentatsiyasi haqida gapirar ekan, konsept turli (genetik jihatdan yaqin yoki uzoq) tillar o'rtasida qiyoslanishda alohida e'tibor markazida bo'lishiga ahamiyat qaratadi: konseptlarning leksik jihatdan ifodalanishini qiyosiy tahlil qilish usullari turlicha bo'lishi mumkin bo'lsa-da, ko'plab tadqiqotlarda konseptni ifodalovchi leksik birliklarning semantik tahlili leksik-semantik maydonlar shaklida amalga oshiriladi [2, 14]. Shu sababdan, tilshunoslikda konsept verbalizatsiyasini tahlil qilib borar ekanmiz, bevosita maydon, xususan, konseptual maydon atamalariga ham murojaat qilishimizga to'g'ri keladi.

Lug'aviy birliklarning ma'lum ma'no asosida birlashuvi Sharq tilshunosligida rivojlangan bo'lsa-da, XIX asrda bu g'oya Yevropa tilshunosligida keng tarqaldi va til birliklarini semantik guruhlariga ajratish nazariyasi bilan bog'liq holda o'rganildi. Bu nazariya keyinchalik tilshunoslikda "konseptual maydon" tushunchasi bilan chambarchas bog'landi [3, 3656].

O.I.Kiryakova leksik va konseptual maydon atamalarining dastlab Y.Trir tomonidan fanga kiritilganini ma'lum qiladi. "Maydon" tushunchasiga M.M.Guxman tomonidan taklif etilgan ta'rifga ko'ra, maydon tilning ichki tuzilmasidagi elementlar o'rtasidagi bog'lanish va aloqalarni izohlovchi model sifatida tasvirlanadi [2, 14].

Lingvistik ensiklopedik lug'atda V.N.Yartseva "maydon" atamasiga bir tildagi umumiy ma'no bilan birlashgan lug'aviy birliklar to'plamini anglatib, tasvirlangan hodisalarning konseptual, subyektiv yoki funksional yaqinligini bildiradi [4, 380], deya ta'rif bergan.

Maydonni o'rganishda ikki asosiy yondashuv: paradigmatic va sintagmatik yondashuvlar mavjud bo'lib, bular asosida keyinchalik grammatik-leksik maydon, grammatik maydon, funksional-semantik maydon, semantik maydon va assotsiativ maydon konsepsiyalari paydo bo'ldi [5, 38-39].

Rus olimlari Y.O.Zubareva, S.V.Shustova, va Y.V.Isayevalar esa maydonlarni o'rganishda o'zgacha yondashuvlar mavjudligini aytadilar: 1) umumiy lingvistik yondashuv: bu yondashuvda maydon har qanday tizimli leksik birlik sifatida qaraladi; 2) umumiy fanlararo yondashuv, bunda til maydoni madaniy maydon yoki assotsiativ maydon bilan mos keladi; 3) maxsus-lingvistik

yondashuvda esa maydon tilning semantik va/yoki leksik darajasidagi alohida birlik sifatida tushuniladi [6, 19].

Olimalar har uchala yondashuvga umumlashgan holda murojaat qilar ekanlar, tilning maydon konsepsiyasining quyidagicha qoidalarini e'tirof etadilar: 1) maydon tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ushbu elementlar o'zaro tizimli munosabatlar bilan bog'langan bo'ladi; 2) semantik jihatdan umumiylikka ega bo'ladi hamda tilda yagona funksiyani bajaradi; 3) bir jinsli (rod) va turli jinsli elementlarni birlashtiradi; 4) maydon vertikal va gorizontal tashkil etilgan bo'ladi; 5) maydonning tarkibida yadro va periferik konstituentlar ajratiladi; 6) turli xil maydonlar qisman bir-biriga ustma-ust keladi va asta-sekin o'tish zonalarini hosil qiladi, bu til tizimining maydoniy tashkil etilish qonuni hisoblanadi [6, 19].

Konseptlarning leksik-semantik maydonlar doirasida verbalizatsiya qilinishi tilda chuqur ma'noviy qatlamlar mavjudligini namoyon etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, har bir konsept til tizimining turli darajalarida turlicha namoyon bo'lishi bilan birga, madaniy va psixologik omillar ta'sirida ham o'ziga xos semantik shakllanishga ega. Verbalizatsiyalanmagan konseptlarning mavjudligi esa tilning semantik imkoniyatlari va tafakkur doirasi o'rtasidagi tafovutni ochib beradi. Kelgusidagi tadqiqotlar uchun konseptual maydonlarning turli tillarda qiyosiy tahlili va ularning kontekstual o'zgaruvchanligi dolzarb ilmiy yo'nalish sifatida qaralishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Halimova F.R. Formation Types and Means of Verbalization of Concepts. European Multidisciplinary Journal of Modern Science 12. 2022. – P.55–58.
2. Кирьякова О. И. Лексико-семантическая репрезентация концепта «радость» в английском и русском языках (на материале переводов художественных текстов XIX века) Москва. – 2009. – С. 14
3. M.Solijonov. On the linguocultural analysis of the conceptual field in the text. European Journal of Molecular & Clinical Medicine. Volume 07 Issue 03 2020. – P. 3656.
4. Yartseva V. N. Linguistic Encyclopedic Dictionary. Moscow Sovetskaya ensiklopediya 1990. – P.380.
5. Чжао Сыминь. Концептуальное поле «прямота лукавство» в русском провербиальном пространстве: лингвокогнитивный аспект. Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук Санкт-Петербург. 2023. – С. 38 – 39.
6. Зубарева Е.О Шустова С.В Исаева Е.В. Концептуальное поле в современной лингвистической парадигме Евразийский гуманитарный журнал. 2019. №3. – С.19.